



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI



 <https://innoworld.net>

 +998335668868



ILMIY JURNAL



 JOURNALS
MASTER LIST

 ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
NUMBER
FOR
SERIALS
PUBLICATIONS

 doi

 zenodo

 OpenAIRE

 Academic
Resource
Index
ResearchBID

 Google Scholar

 open access.nl



INNOVATION TALABALAR AXBOROTNOMASI

2-JILD, 4-TO'PLAM
2025

Jurnal quyidagi xalqaro bazalarda indekslanadi:

Google Scholar  digital object identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



Academic
Resource
Index
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

Ilmiy jurnalning rasmiy sayti:

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

**SHAXSLARNING YASHASH JOYIGA BORIB MIGRASIYA VA
FUQAROLIKNI RASMIYLASHTIRISH BO'YICHA DAVLAT XIZMATLARINI
KO'RSATISHNING AYRIM JIHATLARI**

podpolkovnik Otayev O'tkirbek Matyoqubovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik
fakulteti Maxsus fanlar sikli katta o'qituvchisi, dotsent

Annotasiya: Mazkur maqolada 'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi ayrim jihatlarining tavsiflari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Qaror, davlat xizmatlari, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxs, migratsiya, ID-karta, biometrik pasport, Call-markaz.

Abstract: This article describes some aspects of the procedure for providing state services for migration and citizenship registration to citizens of the Republic of Uzbekistan, foreign citizens and stateless persons at their place of residence.

Keywords: Resolution, state services, foreign citizens, stateless person, migration, ID card, biometric passport, Call center.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-iyuldagi 321-son qarorining 1-ilovasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ularning xohishiga ko'ra qo'shimcha to'lov asosida, shuningdek, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasiga qo'shimcha to'lov undirilmagan holda, Davlat xizmatlari yagona reyestrda belgilangan migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasida davlat xizmatlarini ularning yashash joyiga borib, planshet yoki kompyuterga o'rnatilgan texnik qurilmalar yordamida ko'rsatish hamda migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirishga oid rasmiy hujjatlarni qo'shimcha to'lov asosida yetkazib berish tartibini belgilaydi.

Sayyor davlat xizmatlari vakolatli organning:

- ✓ rasmiy veb-sayti;
- ✓ mobil ilovasi;
- ✓ «Call-markaz»ga murojaat qilish;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko'rsatiladi.

Sayyor davlat xizmatlari murojaat etuvchilarning xohishiga ko'ra qo'shimcha to'lov asosida, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasiga esa qo'shimcha to'lov undirilmagan holda ko'rsatiladi. Murojaat etuvchi sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi uchun to'lovlarni ushbu xizmat ko'rsatilishidan avval amalga oshiradi. To'lov to'langanligi axborot tizimlari orqali tasdiqlanadi.

Murojaat etuvchilarga sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun so'rovlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi

Murojaat etuvchilar tomonidan vakolatli organning rasmiy veb-sayti, mobil ilovasi yoki YaIDXP orqali murojaat etilganda, **so'rovnom**a to'ldiriladi. Bunda vakolatli organ va uning hududiy bo'linmasining mas'ul xodimi tomonidan so'rovnomaga kiritilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi **«Pasport-viza»** avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali tekshiriladi.

Murojaat etuvchilar «Call-markaz» orqali murojaat etganda, vakolatli organning mas'ul xodimi tomonidan qabul qilinadi va murojaat etuvchiga **quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi:**

- ✓ ko'rsatiladigan sayyor davlat xizmatlarining turlari;
- ✓ sayyor davlat xizmatlarining turiga qarab zarur hujjatlar ro'yxati;
- ✓ sayyor davlat xizmatlari uchun to'lov miqdori;
- ✓ sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish hududi.

Murojaat etuvchilar muayyan sayyor davlat xizmatini tanlagandan so'ng murojaat etgan kunning **keyingi haftasidan** ushbu xizmat ko'rsatilishi lozim bo'lgan kunni «Call-markaz»ning mas'ul xodimi bilan kelishadi. Agar murojaat etuvchilar xohlagan kunda sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati mavjud bo'lmasa, bu haqda murojaat etuvchilar ogohlantiriladi va unga boshqa kunni tanlash taklif etiladi.

«Call-markaz»ning mas'ul xodimi murojaat etuvchilardan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasiga kirishi yuzasidan tegishli ma'lumotlarni so'rab oladi va ular asosida «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi orqali tekshiradi. Tekshirish natijalariga asosan murojaat etuvchilar haqiqatdan ham aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasida ekanligi tasdiqlansa, «Call-markaz»ning mas'ul xodimi ushbu ma'lumotlarni tizimda qayd etadi. Murojaat etuvchilar «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimida aniqlanmagan hollarda, yashash joyiga sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun kelgan vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmasi mas'ul xodimiga aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasida ekanligi to'g'risida tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi.

«Call-markaz»ning mas'ul xodimi tomonidan murojaat etuvchilarning murojaati **elektron shakldagi ro'yxatga olish kitobida (elektron kitob) qayd etiladi**. Elektron kitobga murojaat etuvchilarning shaxsiga oid ma'lumotlar, yashash joyi va sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi lozim bo'lgan kun kiritiladi. Elektron kitob himoyalangan aloqa kanallari orqali vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalari o'rtasida integrasiya qilinadi. «Call-markaz»ning mas'ul xodimi murojaatni qabul qilgandan so'ng vakolatli organ va uning tegishli hududiy bo'linmasini sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish haqida xabardor qiladi.

Murojaat etuvchilar rasmiy veb-sayt, mobil ilova yoki YaIDXPdagi yo'riqnoma orqali quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi:

- ✓ ko'rsatiladigan sayyor davlat xizmatining turlari;
- ✓ sayyor xizmatning turiga qarab zarur hujjatlar ro'yxati;
- ✓ sayyor davlat xizmati uchun to'lov miqdori;

✓ sayyor davlat xizmatini ko'rsatish hududi.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasidagi shaxslar ushbu toifada ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni vakolatli organning rasmiy veb-sayti, mobil ilovasi yoki YaIDXPga PDF shaklida kiritadi. Rasmiy veb-sayt, mobil ilova yoki YaIDXP orqali yuborilgan murojaat sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish hududlararo onlayn navbatida avtomatik ravishda ro'yxatga olinadi.

Sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi. Vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari murojaat etuvchilarning yashash joyiga xizmat avtotransport vositasida yetib boradi va planshet yoki kompyuterga o'rnatilgan texnik qurilmalar yordamida davlat xizmatlarini ko'rsatadi. Ko'rsatilgan sayyor davlat xizmatlari to'g'risida ***dalolatnoma tuzadi***. Dalolatnomada ko'rsatilgan davlat xizmatlarining turi, davlat xizmatlari ko'rsatilgan joy va sana qayd etiladi.

Agar murojaat etuvchilar, vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari yetib kelgandan so'ng murojaatda ko'rsatilgan manzilda bo'lmasa, mas'ul xodimga muayyan sayyor davlat xizmatini ko'rsatish uchun zarur sharoit yaratmasa, mastlik holatida bo'lsa va o'zining xatti-harakatlari bilan sayyor davlat xizmati ko'rsatilishiga to'sqinlik qilsa yoki mas'ul xodimning talabiga binoan so'ralgan hujjatlarni taqdim etmasa, bu sayyor ***davlat xizmatlarini ko'rsatmaslikka asos bo'ladi*** va dalolatnomada tegishli yozuv bilan qayd etiladi. Bunday holatlarda sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilgan deb hisoblanadi va to'langan to'lovlar qaytarilmaydi.

Ko'rsatilgan sayyor davlat xizmatlari natijalariga ko'ra rasmiylashtiriladigan rasmiy hujjatlarni qo'shimcha to'lov asosida yetkazib berish xizmatini tashkil etish tartibi

Sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilib bo'lgandan so'ng vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari murojaat etuvchilarni tayyor hujjatni qo'shimcha to'lov asosida yetkazib berish xizmati yoki tayyor hujjatni pochta xizmati orqali yuborish imkoniyati mavjudligi to'g'risida xabardor qiladi. Murojaat etuvchilar tayyor hujjatning pochta xizmati orqali yuborilishi istagini bildirganda, vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari tayyor hujjatni murojaat etuvchilar yashash joyiga yetkazilishi uchun «O'zbekiston pochta» AJni elektron tizim orqali xabardor qiladi. «O'zbekiston pochta» AJ tayyor hujjatni murojaat etuvchilarning yashash joyiga ***besh ish kuni*** mobaynida yetkazib beradi.

Pochta xizmati orqali yetkazib berish xizmati natijasi uchun amalga oshiriladigan to'lovlar murojaat etuvchilar tomonidan qoplanadi. Murojaat etuvchilar yetkazib berish xizmati qo'shimcha to'lov asosida ko'rsatilishi istagini bildirsa, vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari murojaat etuvchilarning murojaatini shu yerning o'zida qat'iy hisobda turadigan ***ro'yxatga olish jurnalida qayd etadi*** va murojaat

etuvchilar bilan yetkazib berish kunini kelishadi. Agar murojaat etuvchilar tayyor hujjatni yetkazib berish xizmatidan foydalanishdan bosh tortsa, mas’ul xodim unga hujjat tayyor bo’lish muddatini va ushbu tayyor hujjatni qayerdan olib ketishi mumkinligini tushuntiradi. Mas’ul xodim shu kunning o’zida ro’yxatga olish jurnalida murojaat etuvchilarning shaxsiga doir ma’lumotlar, yetkazib berish manzili va tayyor bo’ladigan hujjatning turi, yetkazib berish sanasini aks ettiradi, agar murojaat etuvchi pochta xizmatini tanlagan bo’lsa, bu haqda tegishli yozuvni qayd etadi.

Vakolatli organ va uning hududiy bo’linmalarining mas’ul xodimlari quyidagi huquqlarga ega:

- ✓ murojaat etuvchilardan sayyor davlat xizmatlari ko’rsatilishi uchun zarur bo’lgan barcha hujjatlarni so’rab olish;
- ✓ sayyor davlat xizmatlarini ko’rsatish uchun zarur bo’lgan sharoitlar bilan ta’minlanishini so’rash;
- ✓ murojaat etuvchilarning hujjatlarini tekshirish maqsadida elektron ma’lumotlar bazasidan foydalanish.

Vakolatli organ va uning hududiy bo’linmalarining mas’ul xodimlari:

- ✓ davlat xizmatlarini, shu jumladan, sayyor davlat xizmatlarini ko’rsatish uchun yetarli malakaga ega bo’lishi;
- ✓ sayyor davlat xizmatlari ko’rsatilishidan kamida 1 soat oldin murojaat etuvchilar bilan bog’lanib, ushbu xizmatlar ko’rsatilishi zarurati mavjudligi, murojaatda ko’rsatilgan manzil va soatlar o’zgarmaganligini so’rashi, davlat xizmatlari ko’rsatilishi uchun zarur bo’ladigan va tayyorlab qo’yilishi lozim bo’lgan hujjatlar haqida batafsil tushuntirish berishi;
- ✓ sayyor davlat xizmatlarini ko’rsatish muddatlariga qat’iy rioya qilishi;
- ✓ sayyor davlat xizmatlari ko’rsatilishidan oldin xizmat avtotransport vositasi hamda planshet yoki kompyuterga o’rnatilgan texnik qurilmalar soz ekanligini tekshirishi;
- ✓ sayyor davlat xizmatlari ko’rsatilayotgan har qanday vaziyatda vazmin, xushmuomala, odobli va e’tiborli bo’lish, murojaat etuvchilarga hurmat bilan hamda «Siz» deb murojaat qilish, ular bilan o’zaro munosabatlarda muomala madaniyati va qonuniylikka qat’iy rioya qilishi;
- ✓ sayyor davlat xizmatlari ko’rsatilganligi to’g’risida hamda murojaat etuvchilar bilan yuzaga kelgan holatlar to’g’risida dalolatnoma tuzishi;
- ✓ murojaat etuvchilarga tayyor hujjatlarni yetkazib berish xizmatidan foydalanish huquqiga ega ekanligini va ushbu turdagi xizmatni ko’rsatish tartibi to’g’risida tushuntirishlar berishi shart.

Sayyor davlat xizmatlari vakolatli organ va uning hududiy bo’linmalari mas’ul xodimlarining aybi bilan belgilangan muddatlarda va tartibda ko’rsatilmagan taqdirda, ularga nisbatan qonunchilik hujjatlarga muvofiq chora ko’riladi.

Murojaat etuvchilar qo’yidagi huquqlarga ega:

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlaridan o'zini tanishtirishini, shaxsini yoki ish joyini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishini talab qilish;

➤ ko'rsatilayotgan sayyor davlat xizmatlari jarayoni bilan batafsil tanishish;

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari murojaat etuvchilarning yashash joyiga yetib borishgacha bo'lgan jarayonda sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishini rad etish;

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari ustidan yuqori turuvchi organga shikoyat bilan murojaat qilish.

Murojaat etuvchilar:

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari tomonidan so'ralgan barcha zarur hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi;

➤ murojaatda ko'rsatilgan manzilda sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi lozim bo'lgan kunda va belgilangan vaqtda hozir bo'lishi;

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari faoliyatiga sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilayotgan jarayonda to'sqinlik qilmasligi;

➤ vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlariga sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi uchun zarur sharoitlarni yaratishi shart.

Murojaat etuvchilar sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishini quyidagi hollarda rad etishi mumkin:

✓ sayyor davlat xizmatlarini ko'rsatish zarurati qolmaganda;

✓ sayyor davlat xizmatlari vakolatli organ va uning hududiy bo'linmalarining mas'ul xodimlari aybi bilan belgilangan muddatlarda va tartibda ko'rsatilmagan holatlarda.

Murojaat etuvchilar tomonidan sayyor davlat xizmatlari ko'rsatilishi rad etilganda, mazkur xizmatlar uchun to'langan to'lovlar qaytariladi, bundan Reglamentning **19-bandida** ko'rsatilgan holatlar mustasno.

(Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan foizda)

Bo'linmadan davlat xizmatlarini ko'rsatish manziliga qadar bo'lgan masofa (km)	Transport xarajatlari (masofaga nisbatan foizda)	Xodimning bitta xizmat ko'rsatishga ketadigan vaqti uchun (foizda)	Foyda (25 foiz)	Umumiy narx (foizda)
10	5,5	12	4,4	21,9
20	10,9		5,7	28,6
30	16,4		7,1	35,5
40	21,8		8,5	42,3
50	27,3		9,8	49,1
60	32,7		11,2	55,9
70	38,2		12,6	62,8
80	43,7		13,9	69,6
90	49,1		15,3	76,4
100	54,6		16,6	83,2

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T: O'zbekiston, 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2016 y.
3. O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 11 sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi "Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3126-son Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijsi chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish tizimini yaratish hamda O'zbekiston Respublikasi biometrik pasport tizimini modernizatsiya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4079-son Qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni;
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 martdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 129-son Qarori;
8. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 31 iyuldagi 321-son qaroriga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti.